

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2025 Vol. 3**

**tsuull.uz  
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2025 Vol. 3

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[goldenscripts.tsuull.uz](http://goldenscripts.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### MATNSHUNOSLIK

<b>Otabek Jo'raboyev</b> Navoiy kulliyoti Qo'qon nusxasining talqiniy tavsifi	4
<b>Shermuhammad Amonov</b> Ahmad Tabibiy lirikasi tadqiqida matn tarixining o'rni	17
<b>Zilola Shukurova</b> Qo'qon bayozchilik maktabi va unga xos an'analar	42
<b>Sherzod Qodirov</b> Herman Vamberining "Cagataische sprachstudien" xrestomatiyasidagi Alisher Navoiy g'azallari sharhi	66

### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Nurboy Jabborov</b> "Tarixi anbiyo va hukamo"ning islomiy-irfoniy mohiyati	82
--	----

### TILSHUNOSLIK

<b>Dr. Muhterem Saygin</b> Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili için Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Gorge Bay)	100
<b>Altay Noorullah</b> Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	113
<b>Farhad Rahimi</b> Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	130

### BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

### MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

### TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)  
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)  
Seyhan Tanju (Turkiya)  
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)  
Benedek Peri (Vengriya)  
Vahit Turk (Turkiya)  
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)  
Eunkyung Oh (Koreya)  
Nazef Shahrani (AQSh)  
Boqijon To'xliyev  
Muhammadjon Imomnazarov  
Bilol Yujel (Turkiya)  
Qosimjon Sodiqov  
Zulxumor Xolmanova  
Mustafa O'ner (Turkiya)  
Nurboy Jabborov  
G'aybulla Boboyorov  
Kimura Satoru (Yaponiya)  
Imran Ay (Turkiya)  
Aftondil Erkinov  
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)  
Rashid Zohidov  
Otabek Jo'raboyev  
Bulent Bayram (Turkiya)  
Qo'ldosh Pardayev  
Nodirbek Jo'raqo'ziyev  
Oysara Madaliyeva  
Hilola Nazirova

**EDITOR IN CHIEF**

Shuhrat Sirojiddinov

**DEPUTY EDITOR IN CHIEF**

Karomat Mullakhojaeva

**EXECUTIVE SECRETARY**

Ozoda Tojibaeva

**EDITORIAL BOARD**

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

**CONTENTS****TEXTOLOGY****Otabek Juraboev**

An Explanatory Description of the Kokand Copy of the Kulliyat of Navo'i 4

**Shermuhammad Amonov**

The role of Textual History in the Study of Ahmad Tabibi's Lyrics 17

**Zilola Shukurova**The Kokand Tradition of *Bayaz* Manuscript Compilation and its Distinctive Features 42**Sherzod Qodirov**

A Review of Alisher Navai's Ghazals in Herman Vámbéry's "Cagataische Sprachstudien" Chrestomathy 66

**LITERATURE****Nurboy Jabborov**

The Islamic and Irfanic Essence of "Tarixi anbiyo and hukamo" 82

**LINGUISTICS****Dr. Muhterem Saygin**

An Expression Used for Beloved in the Eastern Field of Classical Turkish Literature: Körke Bay (Körkke Bay, Göрге Bay) .100

**Altay Noorullah**

Incorrect use of Punctuation Marks in Navoi's Works 113

**Farhad Rahimi**

On the Mistakes of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary II 130

MATNSHUNOSLIK  
TEXTOLOGY

## Navoiy kulliyoti Qo‘qon nusxasining talqiniy tavsifi

Otabek Jo‘raboyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Muallif XIX asrda Qo‘qonda kitobat etilgan, ayni paytda O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan Navoiy kulliyotining bir qo‘lyozma nusxasini tadqiq etgan. Ilk bora monografik tavsif etilayotgan ushbu manbaning kitobat xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Qo‘lyozma kulliyot matniga xos muhim jihatlar hamda kotibni individual yondashuvi maxsus o‘rganilgan. Bu davr qo‘lyozmalari, jumladan Alisher Navoiy asarlarining ko‘chirilishiga oid masalalar, shuningdek, Qo‘qon xonlarining qo‘lyozma manbalarni tarqatish borasidagi maxsus farmonlari xususidagi fikrlar ham bayon etilgan. Maqolada o‘rganilayotgan kulliyot matnidagi ayrim o‘rinlar shoir she‘rlari jamlangan boshqa nodir qo‘lyozma nusxalar bilan qiyoslangan va kulliyot matnidagi bunday o‘zgarishlarning sabablari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Navoiy, Qo‘qon kitobatchiligi, kulliyot, qo‘lyozma, matn, xattot.*

### Kirish

Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarning jamlanmasi – kulliyotlarni o‘rganish matnshunoslikda va adabiyotshunoslikda hamisha muhim bo‘lib qolaveradi. Bu borada ilk bora prof. Hamid Sulaymonning maxsus kuzatishlari e‘lon qilingan [Сулаймон 1973, 82 – 92]. Matnshunos olim ushbu tadqiqotida Navoiyning sakkizta kulliyoti haqida mufassal ma‘lumot bergan. Keyinchalik, ayrim kataloglarda [Ҳакимов 1983, 3] Navoiy kulliyotlari ko‘rsatilsa-da, har bir manba haqida tavsifiy tadqiqatlar hamon mavjud emas. Masalan, 2016-yili Shodi Oydinning “Eron kutubxonalaridagi turkiy yozmalar katalogi” (Iran kütüphaneleri türkçe yazmalar kataloğu)ga tayanib, jiddiy o‘rganilishi taqozo etilayotgan yana olti kulliyot

---

<sup>1</sup> Jo‘raboyev Otabek Rustam o‘g‘li – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi.

**E-mail:** atabekrj@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0001-9997-1488

**Iqtibos uchun:** Jo‘raboyev, O. R. 2025. “Navoiy kulliyoti Qo‘qon nusxasining talqiniy tavsifi”. *Oltin bitiglar* 3: 4 – 16.

borligini eslatgan edik [Жўрабоев 2016, 28].

Navoiy kulliyotlari ko'p jihatdan qimmatli sanaladi. Avvalo, bu kulliyotlar manbashunoslikda muhim o'rin tutadi. Xususan, navoiyshunoslikda muallif asarlarining tarkibiy qismlarini aniqlash va shoir ijodiy merosini butun ko'lami bilan idrok etib o'rganishda ular muayyan ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot-maqolada Navoiyga mansub kulliyotlardan birining qo'lyozma nusxasi xususida fikr yuritiladi. Mazkur qo'lyozma Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi "Nodir qo'lyozmalar va noyob bosma kitoblar" fondida **163-raqam** ostida saqlanadi.

Qo'lyozmaning hajmi – 30x54 sm; 406 varaq. Matn har bir sahifaga 27 qatordan joylashtirilgan.

Shu bilan birga, u XIX asrga oid o'ziga xos nodir adabiy manbalardan biri hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Kulliyot Navoiy adabiy merosiga doir bir necha asarni o'zida jam etgan. Jumladan: unda "Badoye' ul-bidoya" devonining debochasini (1<sup>b</sup>–8<sup>b</sup> varaqlar), "Xazoyin-ul-maoniy" majmuasiga kirgan she'rlar to'plamini (9<sup>b</sup>–130<sup>b</sup> varaqlar), "Xamsa"ning beshta dostoni – "Hayrat-ul-abror" (133<sup>b</sup>–172<sup>b</sup> varaqlar), "Layli va Majnun" (173<sup>b</sup>–207<sup>b</sup> varaqlar), "Farhod va Shirin" (210<sup>b</sup>–266<sup>b</sup> varaqlar), "Sab'ai sayyor" (268<sup>b</sup>–314<sup>b</sup> varaqlar) va "Saddi Iskandariy" (316<sup>b</sup>–386<sup>a</sup> varaqlar) hamda Navoiyning mashhur nasriy asari "Mahbub-ul-qulub" (388<sup>b</sup>–406<sup>a</sup> varaqlar) bir oraga jam bo'lganini ko'ramiz.

Boshlanishi:

*Bismillah...*

*Fasohat devonining g'azalsaroylari tab' maxzanidin sho'ri-dahol oshiqlar xirmanini jonig'a o't solg'udek...*

Oxiri:

*Bu bag'ri payvandini ko'ngullarg'a marg'ub et. Bin-nabiy vallohu a'lo majod.*

Mazkur manbaning tavsifiy tuzilishlariga diqqat qiladigan bo'lsak, birinchi o'rinda qo'lyozma katta formatdagi o'rta asrlar sharq kitobat san'ati namunasidir. Muqovasi oddiy qog'oz qo'tishmasdan ishlangan bo'lsa-da, o'z davriga xos tavsifiy belgilarga ega. Ya'ni muqova yuza qismida 14ta tamg'a (unvon) bor. Bu 14ta unvonning ikkitasida mazkur muqovani tayyorlagan muqovasozning ismi ham mavjud: *Muhammad Maqsud*. Muqova tikilgan

o'rinlar qizil charmdan ishlangan. Ichki qismiga diqqat qiladigan bo'lsak, muqova labakisi mustahkam va qattiq bo'lib, bu yerga qora rangli qog'oz yopishtirilgan.

Dastlabki sahifalarda mazkur qo'lyozma bilan bog'liq bo'lmagan yozuvlar bo'lib, uchinchi sahifadan boshlab ushbu kulliyotga kirgan asar o'rin olgan.

Qo'lyozmaning kotibi va ko'chirilgan joyi aniq. Demak, mazkur manba hijriy 1264 (milodiy 1848) yili Qo'qon shahrida kitobat qilingan. Uning kotibi – *Mulla Ismoilxo'ja ibn Muhammadsharifxo'ja Urganjiy*. Xattotning kolofonda bergan ma'lumotiga ko'ra, u hijriy 1264-yili Qo'qon shahridagi Ashirquli mergan mahallasida mazkur kitobni oxirigacha ko'chirib bitirgan. Bu ma'lumot "Xazoyin-ul-maoniy"ning oxirida keladi (130<sup>b</sup>-varaq). Kitobning yana uch joyida 1264 sanasi qayd etilgan.

Kotibning nisbasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, hozir ham Qo'qon shahridan 20 km masofa uzoqlikda Urganji qishlog'i bor. Ma'lum bo'ladiki, mazkur kotib ushbu mavzeda tug'ilib o'sgan va Qo'qonda nash'u namo topgan. Hozirgi kunda ham qo'lyozmada nomi qayd etilgan mahalla Qo'qon shahrida mavjud. Ya'ni, asar haqiqatan ham 1848-yili xonlik poytaxtida kitobat qilingani ma'lum bo'ladi.

Kitob o'ziga xos ayrim bezaklarga ega. To'g'ri, ularni temuriylar davriga xos kitobat san'atining nozik ishlanmalik go'zal namunalariga qiyos qilish mushkul. Lekin XIX asrga oid bo'lgan lavhlar, naqshlar va kitobning bezalishi bilan bog'liq boshqa belgilarga ega. Kulliyot tarkibidagi barcha asarlarining boshlanishidan oldin (1<sup>b</sup>, 9<sup>b</sup>, 133<sup>b</sup>, 173<sup>b</sup>, 210<sup>b</sup>, 268<sup>b</sup>, 316<sup>b</sup>-sahifalar) naqshli lavha (unvon) chizilgan.

Qo'lyozma batafsil o'rganilganda, uning kotibi malakali va xushnavis xattot ekanligi oydinlashadi. Afsuski, bizga faqat kotib nomi ma'lum bo'lib, zikr etilgan bezak va har bir asar boshiga badiiy kirish-unvonlar ishlagan, jadvallar chizgan munaqqash va jadvalkash nomi ma'lum emas.

Manbada pushti, sariq, yashil, moviy ranglar ishlatilgan. Har bir asarni ajratib turish uchun sarlavhalar alohida qizil rangda berilgan. Umumiy matn qora siyohda xushnavis nasta'liq bilan yozib borilgan.

Qo'lyozma novvotrang shildiroq Qo'qon ipak qog'oziga yozilgan. Ma'lumki, bu tur qog'oz matnni yaxshi saqlay olishi, jilolantirishi, shu bilan birga manba umrini uzoqroq saqlashi bilan alohida mavqe qozongan qog'oz hisoblanadi. Va kulliyotning har bir

sahifasidagi yozuv juda yorqin siyoh bilan ajratib berilgan. Kulliyotdagi sheʼriy va nasriy asarlar alohida jadvallar ichiga olingan holda tartib berilgan. Masalan, “Badoye’-ul-bidoya” devoni debochasi oxirgi qismida kotib individual tarzda, yozuvda oʻz talqinini namoyish qilgan. Bu bilan, ayniqsa, XIX asr xattotlarida Alisher Navoiy asarlariga munosabat biroz oʻzgarganligini ham koʻrish mumkin.

9<sup>b</sup>-sahifa “Xazoyin-ul-maoniy”ning dastlabki gʻazali “Ash-raqat” bilan boshlanadi:



“Xazoyin” boshidagi naqshinkorlikka ajratilgan oʻrinlarga eʼtibor qilsak, har bir gʻazalni alohida berishga va toʻrt ustunlik jadvalga bir tekis joylab borishga harakat qilinganiga guvoh boʻlamiz. Lekin qizigʻi shuki, “Xazoyin”ning dastlabki sahifasida, koʻp oʻqilganidan boʻlsa kerak, barmoq izidan boʻyalib ketgan oʻrinlar mavjud.

Kotibning gʻalatiroq yondashuvini, yaʼni “Xazoyin ul-maoniy”ni aslicha – “Gʻaroyib-us-sigʻar”, “Navodir-ush-shabob”, “Badoye’-ul-vasat” va “Favoyid-ul-kibar” nomli toʻrtta devondan iborat ketma-ketlikda bermasligi; har bir devondagi 650 tadan (jami 2600ta) gʻazalni va boshqa lirik janrdagi sheʼrlarni sidirgʻasiga yozish mazkur kulliyotning kotibi Ismoilxoʻjaning matnga munosabati oʻzgacharoq ekanligini koʻrsatadi.

Kulliyot hajmi anchayin katta. T. Sultonov “Среднеазиатская

и восточнотуркестанская позднесредневековая рукописная книга” maqolasida O’rta Osiyo kitobchiligidagi uzunasiga 30-45 sm, eniga 27-28 sm katta formatli kitob hisoblanishi aytiladi [Рукописная книга ... 1987, 488]. Qiyosan ko’rish mumkinki, bizning kulliyot chindan ham ulkan hisoblanadi (qo’lyozma o’lchami: 30x54 sm va matn olchami: 19x30 sm).

Ya’ni, u o’z davri miqyos nuqtayi nazaridan bir yerda maxsus o’tirib o’qishga mo’ljallangan. Odatda, bu kabi kitoblarning biror o’rnida uning kimningdir buyurtmasi yoki talabi bilan ko’chirilganligi haqida ma’lumot bo’lar edi. Afsuski, mazkur manbada bunga doir biror ishora yo’q. Lekin shunday bo’lsa ham ushbu kulliyot kotibi bu kulliyotni alohida buyurtma bilan tasnif etganini taxmin qilish mumkin. Faqat kotibning asarlarni taqdim etishda yondashuvi biroz o’zgacharoq bo’lgan; aytaylik, dastlab “Xazoyin-ul-maoniy”ning o’z debochasi o’rniga “Badoye’-ul-bidoya” debochasini qo’yan. So’ngra, “Xazoyin-ul-maoniy” tarkibiga kirgan lirik janrdagi she’rlar ketma-ketligini buzgan – sidirg’asiga barcha to’rt devondagi 2600 g’azalni qo’yan. Fardlar, qit’alar, ruboiylar, masnaviylarni ham mana shu tarzda ketma-ket bergan. Mana bu namunadan qit’alarining qanday joylashtirilganini ko’rish mumkin:



Har bir qit’a alohida jadvalga olingan, undan so’ngra boshqa she’rlarni ham ketma-ket joylashtirganligiga guvoh bo’lamiz. Kotib bu bilan “Xazoyin”dagi har bir devonning ketma-ketlikda joylashuvini, janrlar tartibini buzgan va o’ziga xos talqiniy yondashuvni amalga oshirgan. Aytish mumkinki, kulliyot kotibi “Xazoyin-ul-maoniy”ni alohida to’rt devondan iborat majmua emas, balki yaxlit bir asar sifatida tasavvur qilgan.

Navoiy asarlari matniga bu kabi noan’anaviy yondashuvni

o'sha davrga oid yana bir qancha manbalarda ham ko'ramiz. Xususan, 1810-yildan 1822-yilgacha Qo'qon xonligida hukmdorlik qilgan Amir Umarxon bu borada maxsus farmoyish chiqargan [Жўпабоев 2011, 12 – 13]. Ushbu farmoyishga ko'ra, Alisher Navoiy devonlarini buzmasdan, asliyatini saqlagan holda ko'chirish lozim ekanligi alohida ta'kidlanadi: *“Bir kun ayni inoyatdin bu to'rt devonlarikim, Amir Navoiydin shavq-u muhabbat dostonidur, nazar yasatib, mutolaa qilmish erdi. Chun avvalqi “G'aroyib-us-sig'ar” va ikkinchi “Navodir-ush-shabob” va uchunchi “Badoye'-ul-vasat” va to'rtunchi “Favoid-ul-kibar”durlar; mutafarriqa va parishon erdi va g'azallari ham bir-birlarig'a amirayi topib laff-u nashr mushavvashdek ul biri bu birig'a imtizoj birla yozilmish ekan. Bu jihatdin ravo ko'rmaykim, ul to'rt mao'niy javohirni koni bir-birlaridin yiroq tushub har bir diyor mahfilida va har biri bir o'zga bilod manzilida bo'lg'ay; shul soat farmoni oliy sudur topib davlati janobidag'i bir necha munshiy-larkim, har birlari Mir Ali va Mir Imodi zamondurlar, alarning oralaridin to'rt javohirraqam va atorudqalamkim, davron dabistonini sehrkor va mo'jiznigordurlar; intixob qilib, buyurdikim, bu to'rt devoni mutafarriqa va murattab-u marbut yozilib, har qaysisi o'z mahalida voqe' bo'lub, anjom va intizom tobqay...”*

Mazkur parcha hozirda Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan “Muhabbatnoma” nomli 492 varaqlik devonlar majmuasidan o'rin olgan (№ T5452 raqamli qo'lyozma, 476<sup>a</sup>–478<sup>b</sup>-varaqlar). Bu to'plamni Amir Umarxon hijriy 1234-(milodiy 1818-1819) yili Qo'qonda tuzdirib, usmonli-turk imperatori Sulton Mahmud IIga (1808–1839) sovg'a tariqasida yuborgan. Undan jami yetti devon o'rin olgan; ular “Xazoyin-ul-maoniy”dagi to'rtta devon hamda Amiriy, Lutfiy va Fuzuliy devoni. Ushbu qo'lyozma o'z davri kitobat san'atining eng noyob namunalaridan hisoblanib, har bir sahifasi naqsh-u nigor bilan bezatilgan shohona manbadir.

Demak, yuqoriroqda keltirilgan yozuvdan ma'lum bo'ladiki, Amir Umarxon o'zi ixlos qilgan adib hazrat Navoiy asarlari bilan tanishayotganda, bir qo'lyozmaning tuzilishi diqqatini tortadi. Unda Navoiyning ma'nolar xazinasi “mutafarriqa (farqli) va parishon (tarqoq) erdi”. Ya'ni Navoiy asarlariga, jumladan, “Xazoyin-ul-maoniy” majmuasiga qaysidir xattot (biz tavsifini berayotgan kulliyot kabi) shu taxlitda erkin yondashgan. Ammo bu o'zgarish xonga yoqmaydi va buni u qattiq qoralagan. Natijada, “farmoni oliy” berilib, “Xazoyin ul-maoniy”ni asl manbalar asosida to'g'ri ko'chirish haqida amr qilinadi.

Keyinchalik – yigirma yil mobaynida Qo'qon xonligini

boshqargan uning o'g'li Muhammad Alixon (1808 – 1842) ham Navoiyga qattiq ixlos qilgan, yana manbada keltirilishicha: *“Va bu sultoni oliyqadrning muborak xotirig'a barcha musannifotlardin devonlarekim, alfozi turkiy bilan tasnif topgan bo'lsa marg'ubroq edi. Va bu nav' devonlardin, xususan, musannifoti janobi Amiri Alisher jannatmasir... mahbubroq edi”* [Саид Муҳаммад Алихон 2024, 46].

Bu xon tomonidan ham Navoiy asarlari qo'lyozmalarini ko'paytirish borasida maxsus farmoyish berilgani ma'lum. Jumladan, 1838-yili uning farmoni bilan “Xazoyin-ul-maoniy” asari ishonchli qo'lyozmalar asosida 300 nusxada ko'chirtirilib, xonlik hududida tarqatilgan. Ushbu nusxalardan bir nechtasi bizgacha yetib kelgan va hozirda O'zR FASHI fondida saqlanmoqda [Саид Муҳаммад Алихон 2024, 19].

Afsuski, tavsiflanayotgan ushbu qo'lyozmani xonlar farmonida zikr etilgan benuqson manbalar qatoriga kirita olmaymiz. Avvalo, biz o'rganayotgan kulliyot keyingi davr – 1848-yilga oid bo'lib, bu vaqt Qo'qon xoni Xudoyorxonning dastlabki hukmronlik yillariga to'g'ri keladi. Ammo keyingi davrlarda ham Navoiy asarlarini kitobat qilib ko'chirilganligi, yondashuv o'zgacharoq bo'lsa-da, shoir ijodiy merosiga ehtiyoj katta bo'lganligi seziladi.

Kulliyotning davomida Navoiyning boshqa asarlari, deylik “Xamsa” kitobat qilinganini ko'ramiz. Yana har bir dostonni alohida ko'rsatish uchun qo'shsahifa bo'sh qoldirilgan. Lekin bu bo'sh sahifalarga ham ikki qatlamlik jadval ishlangan. Birinchi qatlamda lojuvard, ikkinchisida qizil, nimpushti va ko'k rangdan iborat jadval bo'sh qoldirilgan. Lekin “Hayrat-ul-abror” dostonining dastlabki sahifasida unvon joylashuviga diqqat etilsa, u “Badoye' ul-bidoya” debochasidagi va “Xazoyin”ning dastlabki sahifasidagi unvon bilan deyarli bir xil. Faqat, ba'zi naqshlari farq qiladi, xolos. Dostonlarni ketma-ket joylashda ham ushbu kotib boshqacharoq yondashgan. Ya'ni, “Hayrat-ul-abror” dan so'ng “Farhod va Shirin” o'rniga “Layli va Majnun” dostonini qo'ygan.

Jadvallar ichidagi dostonning nasriy sarlavhalari qizil siyohda berilgan. Asar sahifalarini ajratishga oson bo'lishi uchun sahifa chetiga tugmacha (kichik bo'rtma mato parchasi) ham qo'yilgan. Bu esa sahifalarni o'zaro asarlar bo'yicha juzga ajratib olish uchundir.

“Layli va Majnun” dostonidagi boshlanma sahifa avvalgi ko'rilgan unvon kabi deyarli takrorlanadi. Faqat ichki ranglarining bezagida biroz farq bor. Bu o'rinda ham “bismillah” o'z o'rnida va har doston ichki sarlavhalarining barchasi qizil siyohda ajratib beriladi.



Keyingi dostonlar boshlanishiga e'tibor berilsa, unvonning ichki qismidagi bezakning biroz o'zgargani kuzatiladi. Lekin tashqi qismi deyarli o'shandek. Masalan, "Sab'ai sayyor"ning unvon qismida ham faqat bezakda va ichki naqshda ozgina farq bor. Lekin tuzilishi, lavhning kelishi avvalgi dostonlar bilan bir xil. Oxirgi –"Saddi Iskandariy"ning bezak qismida ham xuddi shu jihatni ko'ramiz. Buni ma'lum ma'noda, ushbu kitobni tartib berishda bir yoki hamfikir bo'lgan bir necha mualliflar (xattot, naqqosh, lavhsoz, jadvalkash kabi) ishlagan deyish mumkin. Ya'ni, ortiqcha bejama-bezaklarsiz ham u (yoki, ular) o'z ishini oxiriga yetkazishlari mumkin edi. Lekin o'rta asrlarga xos bo'lgan, xususan, aynan Navoiy asarlarini chiroyli va nafis taqdim etish istagida bo'lganligi uchun ham har bir bitik shunday bezak ishlashga va oxirida kolofon bilan bitirishga harakat qilingan.

Kotib ushbu kulliyotdagi eng katta asar – "Xamsa" dostonlari yozuvini tugatgach, forsiy tilda to'rt baytdan iborat maxsus she'r keltiradi. Uning tarjimai berilmoqda:

*Kun kelib ajal yetib, tuprog'imni shamol sochsa,  
Bu nusxani o'quvchi meni eslasa.  
O'lim umr dandomidan meni bo'shatib,  
Qora tufroq tanamni banddan ajratgan kunda,  
Har kim bu yozuvimni o'qib, men uchun duo qilsa,  
Unga Yaratganning rahmati yog'ilsin.  
Kim bizni yaxshilik bilan yod etsa,  
Uning nomi ham dunyoda yaxshilik ila tilga olinsin.*

Kulliyotdagi oxirgi bitik "Mahbub ul-qulub" nasriy asar bo'lgani uchun yaxlit bir jadvalda berilgan. Bu o'rinda sahifalar ichki jadvallarga bo'linmagan. Kotibni nafaqat husnixat egasi, balki savodxon muharrir ekanligiga ham guvoh bo'lish mumkin. Sahifalar hoshiyasidagi kiritmalarda asosiy matndan tushib qolgan bir necha so'z yoki parchalarni kotib tomonidan yozib qo'yilganligini ko'ramiz.

Ayrim o'rinlarda esa maxsus belgi bilan qaysi qatorga oid ekanligi ham ko'rsatilgan. Bu jihat aynan Navoiy asariga munosabatning o'ta jiddiy bo'lganini va tez yozganda, albatta, ba'zi so'zlar tushib qolgandan so'ng qayta o'qiyotganda aynan o'sha qalam va o'sha xatda hattoki, siyohni o'zgartirmagan tarzda ishora bilan yozib qo'yilganligining guvohi bo'lish mumkin.



Kulliyot oxirgi sahifalarga borgani sari kotibning xati biroz tezlashgani seziladi. Ma’lum bo’ladiki, xattot bir yil ichida ushbu katta hajmli manbani yozib tugallashga harakat qilgan. Odatda, bunday katta kitobat namunalari bir emas, ikki-uch yilda nihoyasiga yetkazilar edi. Lekin nomi zikr etilgan xattot – Ismoilxo’ja ibn Muhammadsharifxo’ja katta jidd-u jahd qilgan. Tavsifiy belgiga ko’ra qo’lyozmani bitish aynan 1848-yili boshlanib, shu yil oxirida yakuniga yetgan. Kotib manbani xotimasida kitobni o’qiganlarni duo qiladi va qomati egilib ishni tugatsa ham mahub (sevgili)larga maktub (yozuv-bitik) yetkaza olganiga shukrona keltiradi:

*Chu xush latifdin o’ldi hosil,  
Har kim o’qusa iloho o’lg’ay xushdil.*

Bayt:

*Egilib qomatim garchi kitobat uzra lom o’ldi,  
Bihamdillahki, bu maktubi mahubon tamom o’ldi.  
Tammam-al kitob biavnul-mulk.*

Bu o’rinda “maktubi mahubon” deya, “Mahub-ul-qulub” asariga ishora qilinmoqda.

Endi kulliyot matniga diqqat qilamiz. Manba sifatida ayrim o’zgachaliklarga ega bo’lgan ushbu qo’lyozma matn nuqtayi nazardan ham ba’zi farqli jihatlarni aks ettiradi. Misol tariqasida kulliyotdagi “Sab’ai sayyora” dostonining matnini olsak. Tadqiqimiz

qiziqarli va ishonchli bo'lishi uchun doston matnini Navoiy qo'lyozmalarining eng mo'tabar nusxalaridan biri – Istanbuldagi To'pqopi saroyi Ravon kutubxonasida saqlanayotgan (№ 808) kulliyot matni bilan qiyosladik [Kulliyati Nevayi 2020]. Ushbu kulliyot Navoiy hayotligida, shoirning nazorati ostida kitobat qilinganligi bilan ahamiyatlidir (1499–1500-y.).

To'pqopi kulliyoti "Sab'ai sayyor" dostonining 3-bob sarlavhasi shunday berilgan:

اول شاه رسالت پناه نعتی کیم لولاک لوی بیلا انا افصح الفی انک سپاه دولتیغه لوا کیلدی و ماطعی  
طاوغینی بیله اسری راسی انک مثال ثبوتیغه طغرا و اول مثال دا ایکی عالم سلطنتی مبین و اول مثال یوزی  
مهر نبوت بیله مذبین

Yuqorida tavsifini taqdim etganimiz Toshkent kulliyotidagi (№163) ayni parchada ba'zi farqli jihatlar mavjud. Jumladan, matndagi "misol" so'zi "visol" bilan almashtirilgan. So'z o'zgarishi yozuvdagi shoshilinch yoki ko'chirishga asos bo'layotgan matn bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Garchand, "visol" yaqinlik ma'nosini ifoda etsa ham, bu o'rinda "misol" – umummatn mazmuniga aniqlik kiritmoqda. Demak, matndagi sarlavha kotib tomondan tahrirlangan yoki asos nusxadagi shu so'zlar o'rni almashgan.

Dostondagi 4-bob sarlavhasi esa shunday:

اول مسافر بوادی سما بلکه اول راکب سماوات پیما معراجی کیچه سی نینک تعریفی کیم براقی برق  
کام لیق و پیکی براق خرام لیق قیلدی و اول رخشی بیله پیک حیالیتماس یرکا چاپتی و اول چاپماق بیله  
حکیم خرد فهمی باور ایتماس نمالار تاپتیو

Toshkent kulliyotidagi (№163) matnda "barq" so'zi o'rniga nimagadir "tez" so'zi kelgan. "Rokib samovoti paymo" iborasidan ham "paymo" tushib qolgan. Natijada sarlavhadagi tugal ma'no ifodasi buzilgan. Chunki "safar qiluvchi" va "harakat qiluvchi" mazmunlarini beruvchi bu so'z ta'kidlangan ibora bilan barqaror birikma bo'lib keladi.

Yana shu dostondagi 5-bob sarlavhasi:

سوز تعریفی دا نیچه سوز سورماک و سوز اهلیغه آندین نیچه سوز یتکورماک و کاینات قه تقدیمی نینک  
صفتی و ممکنات قه تاخری ننک اثباتی و اینیک پرده سیدین باشقه معانی بکری جلوه دین عاری و کونکول  
کنجی دا متاری ایکانی ک اظهاری

163-raqamli qo'lyozmada yuqoridagi parchadan "so'z ahlig'a ondin" jumlasidan "ondin", "necha so'z yeturmak" jumlasidan "so'z", "boshqa ma'oniy bakri" dan esa "boshqa" so'zlari tushib qolgan. Bu o'rinda mazkur so'zlarning matndagi kamchiligi nasriy sarlavhaning semantik jihatdan nuqsoniga sabab bo'lgan.

Yoki, devonlar avvalidagi ma'lum va mashhur g'azalning ba'zi baytlarida ham asliyatdagi so'zlar o'zgarganini ko'rish mumkin. Masalan:

*Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,  
Jom o'lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado*

[Навоий 1963, 75].

Baytdagi ostiga chizilgan "zarf" so'zi o'rniga "jom" berilgan. Barcha qadimgi qo'lyozmalar va hatto "Badoye'ul-bidoya" matnida ham "zarf" (ichimlik uchun idish) kelgan. Kulliyot kotibi uni qaysidir o'y bilan oddiyroq varianti "jom"ga almashtirgan ko'rinadi.

Yana shu g'azaldagi yettinchi va sakkizinchi baytlarning o'rni ham Kulliyot matnida almashgan. Ya'ni, asl nusxalardagi sakkizinchi bayt yettinchi baytdan oldinga o'tkazilgan.

*Vahdati bo'lg'ay muyassar may bila jon ichrakim,*

*Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado* [Навоий 1963, 75] – qo'shmisrasidagi ostiga chizilgan so'zlarning ham kulliyot variantida farq bor. "Degan" o'rniga "degay" berilsa, "qilg'ay ado" jumlasini "qil ibtido" tarzida tahrir etilgan. Bu bilan kulliyot kotibi mulla Ismoilxo'ja ushbu misrada qo'pol xato qiladi. Chunki, "qil ibtido" jumlasini qofiya shaklida beshinchi baytda kelgan. "Degan"ning "degay"ga o'zgarishi va yakuniy iboraning almashtirilishi butun bir bayt mazmunini buzib yuborgan. Albatta, buni tez yozish oqibatida yo'l qo'yilgan texnik kamchilik sifatida ham qarash mumkin. Biroq bu kabi kulliyot matni sahilik darajasini tushirib yuboradigan darajadagi yanglishliklar, afsuski, qo'lyozma sahifalarida uchrab turadi.

Demak, Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyi fondidagi 163-raqamli kulliyot matnidagi xatolarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) xattotning shoshilishi tufayli yuzaga kelgan xatolar;
- 2) kulliyot matnini yaratishga asos bo'lgan qo'lyozmaning noqisligi sababli vujudga kelgan yanglishlar;
- 3) Mulla Ismoilxo'ja ibn Muhammadsharifxo'janing mazkur kulliyotga Navoiy asarlarini kiritishda va matnini yozishdagi o'ziga xos individual yondashuvi bois qalqib chiqqan nuqsonlar.

## Xulosa

Prof. H.Sulaymonning ta'kidlashicha: "Navoiy qo'lyozmalarining o'zini tarixiy yodgorlik sifatida kitobat usuli va qoidalarini o'rganish, Sharq kitobatida qabul qilingan qonun-qoidalar asosida

Navoiy qo'lyozmalari tasnifini berish shoir qo'lyozma merosini o'rganuvchi manbashunoslarning muhim vazifalaridan biri bo'lishi kerak" [Сулаймон 1973, 83]. Demak, adabiy manba bilan ishlovchi har bir manbashunos qo'lyozma merosni saqlash va o'rganishdan tashqari, "Sharq kitobatida qabul qilingan qonun-qoidalar"ni yaxshi bilmog'i zarur. Shu bilimlar yorig'ida esa manbalarni ilmiy asoslangan kategoriyalarga muvofiq talqin eta bilish ham zarurdir.

Navoiy asarlarining har bir qo'lyozmasi alohida tadqiq va daqiq yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, kulliyot nusxalarini birinchi navbatda jiddiy o'rganish kerak. Shu ma'noda, XIX asrda Qo'qonda kitobat etilgan O'zRFA Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan kulliyot nusxasi (№163) Navoiy ijodiy merosini birlamchi manbalardan o'rganishda munosib material taqdim eta oluvchi qo'lyozmalardan biridir. Shu bilan birga, kulliyotni tartiblashtirish, asarlarni taqdim etish va matnidagi ayrim o'zgachaliklar Sharq kitobatchiligini tadqiq etish hamda matn talqini va tarixini o'ganishda muayyan ahamiyatga ega manba vazifasini o'tay oladi.

### Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1963. *Асарлар. Ўн беш томлик. 1-том.* Тошкент: Бадиий адабиёт.
- Ҳакимов, М. 1983. *Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи.* Тошкент: Фан.
- Dr. Ş.Aydın. 2008. *İran kutuphanelerinde türkçe yazmalar kataloğu.* İstanbul.
- Жўрабоев, О. 2016. "Навоий асарлари қўлёзмаларини ўрганишнинг баъзи масалалари". *Алишер Навоий ва XXI аср*, 26 – 29. Тошкент.
- Жўрабоев, О. 2011. "Хазойин-ул-маоний"нинг бир шоҳона қўлёзмаси ва унинг матний хусусиятлари". *Adabiyot ko'zgusi* 12: 10 – 17.
- Kulliyati Nevayi.* 2020. Inceleme – Tipkibasim. Hazirlayan: Gunay Kut. Turkiye yazma eserler kurumu. Istanbul.
- Рукописная книга в культуре народов Востока.* 1987. Книга первая. Москва: Наука.
- Саид Муҳаммад Алихон. 2024. *Девон.* Илмий-изоҳли матн ва қўлёзмалар факсимили. Нашрга тайёрловчи: О.Жўрабоев. Тошкент: Tamaddun.
- Сулаймон, Ҳамид. 1973. "Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан". *Адабий мерос* 3. 83 – 92.

# An Explanatory Description of the Kokand Copy of the Kulliyat of Navoi

Otabek Juraboev<sup>1</sup>

## Abstract

The article researches the manuscript of *kulliat-i* Navo'i kept in the fund of the State Museum of Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan written in the XIX<sup>th</sup> century in Kokand. It is paid special attention to the compilation features of this source, which is being described in a monograph for the first time. The manuscript focuses closely on to the originality of the *kulliyat* text and the individual approach of the calligrapher. The specifics of copying manuscripts of this period, including Navo'i's works, are also addressed in separate decrees of the Kokand Khans on the dissemination of such sources. Some passages in the text of the *kulliyat* are compared with other rare manuscripts of Navo'i's works, and the changes in the text of the *kulliyat* are emphasized.

**Key words:** *Navo'i, Kokand, kulliyat, manuscript, text, calligrapher.*

## References

- Alisher Navoiy. 1963. *Asarlar. O'n besh tomlik. 1-tom.* Toshkent: Badiiy adabiyot.
- Hakimov, M. 1983. *Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi.* Toshkent: Fan.
- Dr. Ş. Aydın. 2008. *İran kutuphanelerinde türkçe yazmalar kataloğu.* İstanbul.
- Jo'raboev, O. 2016. "Navoiy asarlari qo'lyozmalarini o'rganishning ba'zi masalalari". *Alisher Navoiy va XXI asr*, 26 – 29. Toshkent: Tamaddun.
- Jo'raboev, O. 2011. "Xazoyin-ul-maoniy"ning bir shohona qo'lyozmasi va uning matniy xususiyatlari". *Adabiyot ko'zgusi* 12: 10 – 17.
- Kulliyati Nevayi.* 2020. Inceleme – Tipkibasim. Hazirlayan: Gunay Kut. Turkiye yazma eserler kurumu. Istanbul.
- Rukopisnaya kniga v kulture narodov Vostoka.* 1987. Kniga pervaya. Moskva: Nauka.
- Said Muhammad Alixon. 2024. *Devon.* Ilmiy-izohli matn va qo'lyozmalar faksimili. Nashrga tayyorlovchi: O. Jo'raboyev. Toshkent.
- Sulaymon, Hamid. 1973. "Alisher Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari tadqiqotidan". *Adabiy meros* 3. 83 – 92.

---

<sup>1</sup> Otabek R. Juraboev – Senior Researcher of the State Literary Museum named after Alisher Navoi, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor.

**E-mail:** atabekrj@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0001-9997-1488

**For citation:** Juraboev, O. R. 2025. "An Explanatory Description of the Kokand Copy of the Kulliyat of Navo'i". *Golden Scripts* 3: 4 – 16.